

**DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI MABLAG'LARI IJROSI VA
UNING NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH***Mirzayev Umidjon Ismoil o'g'li**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

Annotatsiya. Maqolada tashabbusli byudjet mablag'larining sarflanishini nazorati va tahlili, byudjet tizimida yillar davomida o'z yechimini topmayotgan muammolarni yoritib berish hamda bartaraf etish yuzasidan fikrlar bayon etilgan. Tashabbusli byudjet jamg'armasining shakllanishida asosiy manbai, har chorakda mahalliy byudjetlarimizda byudjet daromadlarining belgilangan rejadani o'ttirib bajarilgan qismidan kamida 30 foiz ajratilishi esa fuqarolarimizni byudjet siyosatiga, soliq siyosatiga befarq bo'lmasligiga undab, jamoat nazoratini kuchaytirish bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Maxalliy byudjet, byudjet parametrlari, byudjet daromadlari, defitsit, profitsid, maqsadli fondlar.

Аннотация. В статье излагаются идеи по контролю и анализу расходования средств инициативных бюджетных фондов, выявлению и устранению проблем, которые не решаются в бюджетной системе годами. Основным источником формирования фонда инициативных бюджетов является выделение в местные бюджеты не менее 30 процентов доходов бюджета ежеквартально из перевыполненных в соответствии с установленным планом доходов бюджета, а также делаются выводы по усилению общественного контроля путем поощрения интереса граждан к бюджетной политике и налоговой политике.

Ключевые слова. Местный бюджет, параметры бюджета, доходы бюджета, дефицит, профицит, целевые фонды.

Asosiy qism. 2024-yil Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari prognoz ko'rsatkichlari 65,3 trln so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida 12,9 trln so'mga yoki yillik rejaga nisbatan 19,7 foizga ijro etildi. Bundan tashqari, Davlat byudjetidan davlat maqsadli jamg'armalarga hisobot davrida 6,8 trln so'm miqdorida transfertlar ajratildi. Davlat maqsadli jamg'armalarining yillik rejalashtirilgan xarajatlari esa 96,1 trln so'mni tashkil etib, yillik rejaga nisbatan 19,7 foizga ijro etilgan holda 18,9 trln so'mni tashkil etdi.

Mamlakatimizning byudjet siyosatida tashabbusli byudjet jamg'armasi, zaxira jamg'armasi va qo'shimcha manba mablag'lari asosiy rol o'ynaydi. Mahalliy byudjetlarda ochiqlik, shaffoflik, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishida jamoatchilik nazoratini ta'minlashda tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarining ahamiyati katta. Bundan tashqari mahalliy byudjetlarimizda yil

boshida tasdiqlangan byudjet mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 7-moddasiga asosan ochiqliklik prinsipiga amal qilgan holda ommaga ochiq e'lon qilinishi, qo'shimcha manba mablag'larining hamda tashabbusli byudjet jamg'armasi mablag'larining shakllanishi har chorakda e'lon qilinishi, xalq muhokamasiga qo'yilishi, sarflanishi yuzasidan xalq deputatlari Kengashlarida ko'rib chiqilishi buning isbotidir.

Mamlakatimizda aholi turmush darajasini yaxshilash va aholimizni qiynab kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy muammo va kamchiliklarning bartaraf etilishi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, shu bilan bir vaqtda ichki yo'llarni ta'mirlash hamda infratuzilmalarni yaxshilash, tizimli muammoga aylanib ulgurgan elektr ta'minoti va tabiiy gaz ta'minoti uskuna va inshootlari, ichimlik suv ta'minoti, ijtimoiy soha obyektlarining ta'mirlash ishlari kabi muammolarni hal etish bugungi kunimizning eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu qayd etilgan muammolarni hal etish uchun davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar, davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan mablag'lar, mahalliy byudjetning qo'shimcha manba mablag'lari doirasida bosqichma-bosqich bartaraf etib kelinmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish jarayonida fuqarolarimizni jalb qilish va byudjet mablag'larining sarflanishida aholimizning o'z fuqarolik burchlaridan to'liq foydalangan holda aholimizni qiynab kelayotgan dolzarb ijtimoiy muammolarining bartaraf etilishida ishtirok etishi mexanizmi ta'minlandi.

Mahalliy byudjetlarimizda Zaxira jamg'arma mablag'larining shakllanishi favqulodda kechiktirib bo'laydigan xarajatlar paydo bo'lganda, byudjet parametrlarida ko'zda tutilmagan byudjet xarajatlari yuzaga kelganda yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Qo'shimcha manba mablag'larining shakllanishi esa mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirib, hududlarning rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, mavjud dolzarb ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda, aholi turmush tarzini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizning tuman va shaharlarida mavjud ijtimoiy dolzarb muammolarini ya'ni elektr-gaz ta'minotida, ichimlik suvi, ichki yo'llarning ta'mirlanishi, ijtimoiy soha obyektlari maktab-bog'cha, sog'liqni saqlash muassasa obyektlarining ta'mirlanishi, jihozlanishini ta'minlashda tashabbusli byudjet jamg'armasi va qo'shimcha manba mablag'larining roli oshib bormoqda.

Tashabbusli byudjet jamg'armasini shakllantirish, qo'shimcha manba mablag'larini sarflanishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Senati Kengashining qarorlari, fuqarolarimiz tomonidan tashabbusli byudjet jarayonlarida ishtirokining kundan kunga oshib borayotganligi, ularning byudjet ochiqligini ko'rgan holda moliyaviy savodxonligining oshayotganligi buning yaqqol misolidir.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligining asosiy mezonlaridan biri bu yurtimizning eng chekka hududlarida xam byudjet mablag‘lari hisobidan bartaraf etilishi lozim bo‘lgan eng dolzarb masalalarning fuqarolarimizning o‘z tashabbuslarini ko‘rsatib, taklif kiritib, ovoz yig‘ib, birlashib, jamoat nazoratini o‘rnatib yurtimiz, ravnaqiga befarq emasligini isbotlab, byudjet ochiqlikligini ta‘minlab, byudjet mablag‘larining sarflanishida natijadorligini oshirayotganligidir.

O‘z navbatida, yurtimizning byudjet-soliq siyosatida ochiqliklikni shaffoflikni, samaradorlik va natijadorlikni ta‘minlashda nazariy va ilmiy muammolarimizni chuqur bilim bilan tahlil qilib, uni bartaraf etishda fuqarolarimiz ishtiroki salmog‘ini oshirish, moliyaviy-iqtisodiy bilimi va faolligini oshirish asosiy mezondir. Umuman olganda byudjet shaffofligini ta‘minlash uchun, doimiy ravishda byudjet ma‘lumotlarini yangilash, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish lozim bo‘ladi. Respublikamizning byudjet siyosatida fuqarolarimizning faol ishtirokining salmog‘ining oshishi, iqtisodiyotimizda demokratiya tuyg‘ularining oshishiga olib kelmoqda. Mahalliy byudjetlarda tashabbusli byudjet jamg‘armasi, zaxira jamg‘armasi va qo‘shimcha manba mablag‘larining shakllanishida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, o‘tkazib kelinayotgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida faol ishtirok etib kelayotgan keng jamoatchilikni yanada rag‘batlantirish, hududlardagi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolarni bartaraf etish hamda fuqarolarning faolligini oshirishga qaratilgan, ilmiy-amaliy taklif va xulosa berish dissertatsiya ishimizning asosiy maqsadi bo‘lib hicoblanadi. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi va hal etiladi:

- Mahalliy byudjetlarda tashabbusli byudjet jamg‘armasi, zaxira jamg‘armasi va qo‘shimcha manba mablag‘larining shakllanishi yuzasidan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganib chiqish;
- Termiz shahar mahalliy byudjetining 2023-2024-yil ijrosida qo‘shimcha manba mablag‘larining shakllanishi tahlil etiladi;
- Termiz shahar mahalliy byudjetida 2023-2024-yil davomida tashabbusli byudjet jamg‘armasi va zaxira jamg‘armasi mablag‘larining shakllanishi o‘rganiladi;
- Mahalliy byudjetlarda tashabbusli byudjet jamg‘armasi, zaxira jamg‘armasi va qo‘shimcha manba mablag‘larining shakllanishi yuzasidan ilmiy va amaliy takliflar, xulosalar ishlab chiqildi

Mahalliy byudjetlarda tashabbusli byudjet jamg‘armasi, zaxira jamg‘armasi va qo‘shimcha manba mablag‘larining shakllanishida quyidagicha muammolar va kamchiliklar mavjud:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabr kunidagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini

kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-409 sonli Qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo'shimcha mablag'larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman(shahar)lar fuqarolar tashabbusi jamg'armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo'naltirilishi belgilab qo'yilgan. Ushbu qarorga asosan Termiz shahriga mavjud aholi va mahalla sonidan kelib chiqib mablag' yo'naltirilmoqda. Bu jarayonda viloyat markazi hisoblangan Termiz shahrida respublika byudjeti va viloyat byudjetidan moliyalashadigan byudjet tashkilotlari ko'pligi inobatga olinmagan. Bunda respublika va viloyat byudjeti tashkilotlari qariyb barchasi Termiz shahrida joylashganligi uchun tashabbusli byudjet jamg'armasi mablag'larining sarflanishi asosan kontingenti ko'p bo'lgan respublika va viloyat byudjetidan moliyalashadigan byudjet tashkilotlarining loyihalarini moliyalashtirishga sarflanganligini ko'rishimiz mumkin. Termiz shahrida joylashgan maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy soha tashkilotlari kontingentining respublika va viloyat byudjetidan moliyalashadigan byudjet tashkilotlarining (viloyat ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari, Termiz Davlat Universiteti, ixtisoslashtirilgan institutlar), kontingentidan ancha kam bo'lganligi uchun g'olib bo'lish imkoniyati deyarli yo'q.

➤ Tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlarining qarorlari bilan tasdiqlangan mahalliy byudjet parametrlarida, daromadlar prognozi choraklar kesimida reja taqsimot qilinib ushbu Kengash qarorlari bilan tasdiqlangan, ushbu choraklar kesimida tasdiqlangan reja taqsimotga o'zgartirish kiritish Xalq deputatlari Kengashlari qarorlari doirasida bo'lishini ta'minlash va Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlarini oshirish.

Yurtimizda aholi farovonligini ta'minlash va respublikamizning barcha tuman va shaharlarining chekka hududlarida o'z yechimini kutayotgan ijtimoiy muammolarni hal etishda aholining rolini oshirish, byudjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish va tashabbusli byudjet jarayonlarini yanada takomillashtirishda tashabbusli byudjet jamg'armasi, zaxira jamg'armasi va qo'shimcha manba mablag'larining shakllanishi muhim rol o'ynaydi.

O'z navbatida, mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet mustaqilligiga erishish, joylarda o'z rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda o'z mablag'lariga ega bo'lishida va bu orqali mavjud aholini qiynab kelayotgan ichki yo'l, suv ta'minoti hamda ijtimoiy soha obyektlarini ta'mirlash, jihozlash ishlarini bajarish uchun moliyaviy mablag'lariga ega bo'lishida muhim o'rinni egallaydi.

Shu bois mahalliy byudjetlarda tashabbusli byudjet jamg'armasi, zaxira jamg'armasi va qo'shimcha manba mablag'larining shakllanishi bevosita byudjet daromadlarining o'z vaqtida to'liq bajarilishi, aholining soliq to'lov intizomiga rioya

etishi kerak bo‘ladi. Ushbu tashabbusli byudjet jamg‘armasi va qo‘shimcha manba mablag‘larining ko‘proq miqdorda shakllanishida hududlarda belgilangan asosiy soliq turlarini rejasini ortig‘i bilan bajarib ko‘proq miqdorda mablag‘lar shakllantirilishiga ega bo‘ladi. Bu esa respublikamizning shahar va tuman mahalliy byudjetlarida tashabbusli byudjet, zaxira jamg‘armasi va qo‘shimcha manba mablag‘larining ko‘proq miqdorda shakllanishiga yordam beradi hamda ushbu mablag‘lar orqali ushbu hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga, aholini qiynab kelayotgan muammolarni yechish uchun moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikov T. S., Haydarov N. H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2022, 566 bet.
2. Muxiddinov X. S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Monografiya. T.: “FAN”, 2023. 12 b.
3. Nizomiddin Haydarov. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari “Akademiya” nashriyoti –T., 2022, 79 b.
4. Ostonaqulov M. Mahalliy byudjetlar g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi. - T.: Iqtisod-moliya, 2022.- 88 b.